

SIYOSATINING AHAMIYATI

Ahmadaliyeva N.F

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
stajyor-o'qituvchisi*

Oblakulova K.A

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
moliya fakulteti talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Markaziy bank, uning funksiyalari, asosiy maqsadlari va vazifalari hamda ularni amalga oshirishda pul-kredit siyosatining o'rni haqida so'z yuritiladi. Shu bilan bir qatorda mulohaza va takliflar berib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Markaziy bank, tijorat banklari, pul-kredit, monetar siyosat, fiskal siyosat, foiz stavkalari, pul massasi, hisob stavkasi, qonunlar, valyuta va depozit stavkasi, qimmatli qog'ozlar.*

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotimizning rivojlanishi, mamlakatlararo savdo va aloqalarning rivojlanishi banklar bankining ya'ni Markaziy banklarning asosiy ustuvor vazifasi bo'lib, qo'shimcha vazifalarni yuklash zaruriyatini keltirib chiqardi. Endilikda Markaziy banklar emission bank vazifasini bajarishdan tashqari mamlakatda kredit muassasalari faoliyatini tartibga solish, iqtisodiyotda pul-kredit siyosatini amalga oshirish bilan shug'ullanadi.

Davlat mamlakat milliy valyutasini muomalaga chiqarish, uni tartibga solish, kredit muassasalari faoliyatini nazorat qilish, hisob-kitoblarni tashkil etish bilan bog'liq qator qonunlarni qabul qildi. Shu tarzda davlat kredit muassasalari faoliyatini tashkil etish va pul muomalasini amalga oshirish bo'yicha barcha ishlarni to'liq o'z qo'liga oldi [1].


Markaziy bank hukumat bilan juda yaqin faoliyat yuritsada, uning mustaqilligi pul-kredit siyosatini yuritishi bilan belgilandi. Mamlakatning bevosita Markaziy bank faoliyatiga aralashuvi va pul-kredit siyosatini yuritishidagi to'sqinliklari mamlakat hududida milliy valyuta va pul muomalasi barqarorligini ta'minlashda ko'zga ko'rinarli darajada muommolarni vujudga kelib chiqishi bilan bog'lanadi.

Markaziy bank pul-kredit siyosatini amalga oshirishda u yoki bu darajada davlatdan mustaqil bo'lgani bilan o'zining pul-kredit siyosati orqali hukumatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish rejasini, siyosatini qo'llabquvvatlashga bevosita va bilvosita mas'ul hisoblanadi. Shunday ekan, Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati hukumatning makroiqtisodiy darajadagi siyosatini amalga oshirish nuqtai nazaridan ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi lozim bo'ladi [2].

Tahlil va natijalar

Shuni ta'kidlash joizki, Markaziy bankning o'rinli qattiq olib borayotgan siyosati, hukumatning rag'batlantiruvchi fiskal siyosati bilan birgalikda tashqi savdo defitsiti o'z o'rnida oshib bormoqda. Iqtisodchi olim Mirkomil Xolbeyeв budjet xarajatlarining qisqarishi tashqi savdo defitsitining o'sishini sekinlashtirishini ta'kidladi.

2023-yil IV choragida davomida nisbatan qat'iy pul-kredit sharoitlari saqlanib qolindi va fiskal omillar mo'tadillashuvi kuzatildi. Natijada, inflyatsiyaga monetar omillar ta'siri kamayib, bazaviy inflyatsiya pasayishi davom etdi. Biroq, tartibga solinadigan narxlar oshishi va meva-sabzavotlar narxlarining mavsumiy o'zgarishi hisobiga yillik umumiy inflyatsiya darajasida sezilarli o'zgarish kuzatilmadi. (1-rasmga qarang) [3].



1-rasm. Umumiy inflyatsiya va asosiy komponentlari dinamikasi, foizda

Manba: Statistika agentligi ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitobi

2023-yil dekabr oyida yillik umumiy inflyatsiya darajasi 8,8 foizga teng bo'lib, yil boshiga nisbatan 3,5 foiz bandga pasaydi.

Ushbu grafikdan, quyidagi davrda inflyatsion jarayonlar va ba'zi bir tartibga solingan narxlar darajasi, mavsumiy byudjet xarajatlari o'sishi, ish haqi miqdorining o'sishi va kreditlar sonining ortganligi ta'sirida shakllangan. Umuman, mamlakat hududida inflyatsion o'sish, yuqori talab komponentlariga taklif komponentlari to'liq mos kelmaganligi bilan izohlanadi. Yana bir misol tariqasida, 2023-yil iste'mol tovarlarining ishlab chiqarilishi 2022-yilga nisbatan pastroq bo'lganligi kuzatilgan.

Ma'lumki, naqd pullar kichik hajmdagi chakana va uyushmagan savdo hamda naqd pulli xizmatlar uchun to'lovlarda qo'llaniladi. Yoki, naqd pul aylanmasining umumiy pul aylanmasidagi ulushi yuqorida ko'rsatilgan naqd pulli to'lovlarning jami to'lovlardagi ulushi bilan aniqlanadi. (1-jadvalga qarang)

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida pul massasi, naqd pullar va asosiy stavka o'sish sur'atlarining o'zgarishi, foizda

Yillar	Yalpi pul massasi (M3 pul agregati)	Naqd pullar (M0 pul agregati)	Asosiy stavka
2013	20,3	28,7	12
2014	15,7	22	10
2015	24,3	17,6	14
2016	23,5	24	9
2017	40,2	47	14
2018	14,1	14	16
2019	13,9	9,4	16
2020	17,9	10,7	14
2021	29,7	15	16
2022	30,2	47,3	15

Manba: R.T Shomurodovning O‘zbekistonda monetar siyosat vositalaridan foydalanishni takomillashtirish masalalari maqolasidan muallif tomonidan tayyorlandi.

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, yalpi pul massasi va naqd pullarning o‘shir sur’atlari asosiy stavka ko‘rsatkichidan yuqori. Ammo Markaziy bank pulga bo‘lgan real talab va pul taklifini samarali tartibga solish maqsadida bir vaqtning o‘zida monetar siyosatning boshqa bilvosita vositalaridan, jumladan, majburiy zaxira talablari, valyuta siyosati va ochiq bozordagi operatsiyalardan ham keng foydalangan. Pul massasi va naqd pullarning yuqori sur’atlarda o‘shishi 2017-yilda valyuta siyosatining erkinlashtirilishi va so‘nggi ikki yilda nominal YaIMning yuqori sur’atlarda o‘shishi hamda itisodiyotda pulga bo‘lgan real talabning o‘shishi bilan izohlanadi [4].

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3272-sonli “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida monetar siyosatning likvidlilik operatsiyalari bo‘yicha qo‘llanilayotgan foizli instrumentlardan keng ko‘lamda foydalanish, tijorat banklari tomonidan foiz stavkalarini o‘rinli shakllantirish, bozor mexanizmlarida foydalanishning eng samarali cho‘qqisiga chiqarish va xorij tajribasi orqali prognozlashni makroiqtisodiy tahlil orqali boyitish hamda pul-kredit siyosatining shaffofligini oshirish kabi muhim vazifalar oldimizga maqsad qilib qo‘yilgan edi[5].

S. Moiseevning ilmiy ishlarida pul-kredit siyosatini takomillashtirish yo‘li bilan makroiqtisodiy rivojlanishga yordam berish masalasi asosiy o‘rinni egallaydi. Uning fikriga qaraganda, pul-kredit siyosati to‘rtta strategik maqsadni o‘z ichiga oladi:

- baholarning barqarorligi;
- milliy valyutaning barqarorligi;
- mamlakatda moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash;
- Balanslangan iqtisodiy o‘shir.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida ayrim makroiqtisodiy monetary indikatorlarning holati[6]

<u>Monetar indikatorlar</u>	<u>Yillar</u>				
	2017	2018	2019	2020	2021
<u>Inflyatsiyaning yillik darajasi</u>	14,4	14,3	15,2	11,1	10
<u>MB ning qayta moliyalash stavkasi</u>	14	16	16	14	14
<u>Tijorat banklarining so'mda berilgan kreditlarining o'rtacha yillik foiz stavkasi</u>	18,5	20,5	24,2	22,3	20,8
<u>Majburiy zaxira stavkasi</u>	12,5	9	9	9	9

Ma'lumotlardan, 2017-2021 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasi, inflyatsiya darajasi va tijorat banklari tomonidan so'mda berilgan kreditlar bo'yicha o'rtacha yillik foiz stavkasi pasaygan. Bular joriy davrda umumiy talabni rag'batlantirishga qaratilgan pul-kredit siyosati olib borilganligining yaqqol namunasi hisoblanadi. Iqtisodiyotning moliyaviy resurslari nisbati salbiy tomoni shundaki, 2017-2021 yillarda u 20 foizdan past ko'rsatkichga ega.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

1. Hozirgi global jahonda monetary siyosatning rolini oshirish uchun, Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga diskont kreditlar berish, va ochiq bozor operatsiyalarini bajarish uchun erkin shart-sharoitlar, masalan, likvidlilik darajasi 50 foizdan yuqori bo'lgan banklarning obligatsiya va depozit sertifikatlarini erkin taqdim etish va ularni ob'ektga aylantirish lozim deb hisoblayman.

2. Markaziy bank tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalariga bevosita ta'sir etish uchun, inflyatsiyaning mo'tadil darajasiga ya'ni hech bo'lmaganda 3 foizdan oshmasligini ta'minlash darkor. Markaziy bankning qayta moliyalash kreditlari (Lombard krediti, muddatli kredit va diskont krediti) berishning barqarorligini ta'minlash lozim.

Xulosa sifatida, quyidagi ilmiy-nazariy taklif va amaliy tavsiyalarning amalga oshirilishi, rivojlanayotgan O'zbekistonda monetar siyosatning rolini yanada oshirishda muhim o'rinni egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A. A Omonov, T.M Qoraliyev Pul va banklar. -T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. 210 b.
2. Howard Calhoun Export Import Business article 2023 2-b
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy web sahifasi www.https_cbu.uz . Pul-kredit siyosati sharhi 2023-yil IV choragi bo'yicha.
4. R.T Shomurodovning O'zbekistonda monetar siyosat vositalaridan foydalanishni takomillashtirish masalalari maqolasi 8-b.
5. Lex.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3272-sonli "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori
6. I Rasulova va A.U Abdullayevning Monetar siyosat va uning makroiqtisodiy barqarorlikni rivojlantirishdagi o'rni xususidagi ilmiy-nazariy asoslar maqolasida olingan 5-b.